

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



EKOLOGIYA VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari

Chirchiq – 2023

Fan/modul kodi ETMQM208	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3-4	ECTS - Kreditlar 4-4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Fanning nomi Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish	120	120	240

2. I. Fanning mazmuni.
Fanni o'qitishdan maqsad - Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish tushunchalari, mazmuni, vazifalari, ekologik omillar, tabiiy resurslar va ularning turlari, ulardan oqilona foydalanish, mavjud ekologik muammolarni o'rganishning ilmiy-amaliy ahamiyati va ularni echimlari haqida bilim va ko'nikmalar shakllantirish, talabalarda ekologik tushunchalarni shakllantirish, umumta'lim maktablari va akademik litseylarda geografik ekologiyaga oid bilimlar berish hamda tabiatni muhofaza qilishning asosiy masalalarini o'rganishdan iboratdir.

Fanning vazifalari - quyidagilardan iborat:

- talabalarga tabiat, atrof-muxit, ekotizim, biosfera, noosfera, geografik qobiq, ekologik inqiroz, ekologik havfsizlik, barqaror rivojlanish tushunchalarining mazmuni va mohiyatini ochib berish;
- tabiat va jamiyatning o'zaro ta'siri evolyutsiyasi va uning salbiy oqibatlarini tahlil qilish;
- muhit va ekologik omillar, ekologik qonunlar, tabiiy sharoit, tabiiy resurslar va ulardan oqilona foydalanish xaqida bilimlar berish;
- ekologik muvozanatni buzilish sabablari va uni qayta tiklash yo'llarini tahlil qilish bo'yicha bilimlarni berish;
- ekologik monitorin, ekologik ekspertiza, ekologik baholash, ekologik ta'lim va barqaror rivojlanish uchun ta'lim xaqida asosiy bilimlarni berish va boshqalar.

II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Kirish. "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish" fanining tadqiqot ob'ekti, predmeti va vazifalari

Ekologiya fanining tadqiqot ob'ekti, predmeti va vazifalari, shakllanishi tarixi.

2-mavzu: Ekologiya va tabiatni muhofaza qilishning rivojlanish bosqichlari
Ekologiya va tabiatni muhofaza qilishning rivojlanish tarixini bilish.

3-mavzu: Ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga oid konsepsiyalar va tadqiqotlarning rivojlanish tarixi

Ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga oid konsepsiyalar va tadqiqotlarning rivojlanish tarixini bilish. Ekologiya fanining qonun va tamoyillari. Tabiatni muhofaza qilish-tabiiy resurslarni saqlash va qayta tiklashning umumiy prinsiplari va metodlari xaqidagi kompleks fan sifatida.

4-mavzu: "Tabiat - jamiyat" tizimi, tabiiy resurslar va tabiatga antropogen ta'sir

"Tabiat-jamiyat" tizimining ekologik jihatlarini bilish va ularni tahlil qilish.

5-mavzu: Tabiiy resurslar, ularning tasnifi va iqtisodiy baholash

Tabiiy resurslar, ularning tasnifi va iqtisodiy bahosini aniqlash hamda guruhlariga ajratish. Tabiatga antropogen ta'sirini tahlil qilish.

6-mavzu. Biosfera xaqidagi ta'limot.

Biosfera to'g'risida umumiy tushuncha, mazmuni, mohiyati va ahamiyati. Biosferada modda va energiya aylanma harakati.

7-mavzu. Noosfera - biosfera evolyutsiyasining yangi bosqichi

Biosferada amalga oshayotgan salbiy jarayonlar va uning oldini olish muammolari. Iqlim o'zgarishi muammosi va uning oqibatlari. Noosfera - biosfera evolyutsiyasining yangi bosqichi ekanligini tahlil qila bilish.

8-mavzu. Ekologik tizim to'g'risida tushuncha

Ekologik tizim to'g'risida tushuncha. Ekologik muammolar, ularning vujudga kelish sabablari va hal etish masalalari.

9-mavzu. Muhit va unga moslashuv.

Muhit xaqida tushuncha. Asosiy hayot muhitlari. Muhit elementlari va omillari.

10-mavzu. Ekologik omillar to'g'risida tushuncha.

Ekologik omillar to'g'risida tushuncha. Ekologik omillar ta'siriga moslashish. Minimum qonuni. mazmuni, mohiyati va tahlil qila bilish

11-mavzu. Geoekologik muammolar va ularning yechimi. Global geoekologik muammolar.

Geoekologik muammolar- tushuncha, mazmuni, mohiyati va ularni tahlil qila bilish. Sayyoraviy geoekologik muammolar, ularning oqibatlari va hal etish imkoniyatlari.

12-mavzu. Hududiy va mahalliy geoekologik muammolar

Hududiy geoekologik muammolar va ularning vujudga kelishi. Mahalliy geoekologik muammolarning tarkib topishi hamda ularning yechimi.

13-mavzu. Atmosfera havosini muhofaza qilish

Atmosfera havosi: ahamiyati, tuzilishi, tarkibi va uni ifloslovchi manbalar. O'zbekistonda atmosfera havosi ifloslanishining hozirgi holati. Atmosfera havosi ifloslanishining oqibatlari va uni muhofaza qilish tadbirlari.

14-mavzu. Suv resurslari va ularni muhofaza qilish

Suv resurslari: ahamiyati, zahirasi, tarqalishi va undan foydalanish. O'zbekistonda suv resurslarining holati, ulardan foydalanish, muhofaza qilish muammolari.

15-mavzu. Markaziy Osiyoda suvdan foydalanish muammolari

Markaziy Osiyodaga mavjud suv resurslari, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish muammolari. Orol dengizi va Aydar-Armasoy ko'llar tizimidagi ekologik vaziyat.

16-mavzu. Tuproq-yer resurslari va ularni muhofaza qilish

Tuproq-yer resurslari va ulardan foydalanish. Yer resurslaridan foydalanish jarayonida vujudga kelgan muammolar. Yerni tiklash, ularning muhsuldorligini oshirish va tuproq muhofazasi ta'minlash.

17-mavzu. Biologik resurslar va ularni muhofaza qilish

Biologik resurslarning tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati. O'zbekistonning biologik resurslari: foydalanish, muammo va yechimlar. Biologik resurslarni muhofaza qilishda O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ning o'rni.

18-mavzu. O'rmon resurslari va ularni muhofaza qilish

O'rmonlarning ahamiyati va zahirasi. O'zbekistonning o'rmon resurslari. O'rmonlarga antropogen ta'sir oqibatlari va uni muhofaza qilish.

19-mavzu. Mineral resurslar va ulardan foydalanishni optimallashtirish

Mineral resurslar bilan ta'minlanganlik. O'zbekistonning mineral resurslari va ulardan foydalanish. Mineral resurslardan foydalanish bilan bog'liq muammolar va uni optimallashtirish.

20-mavzu. Chiqindilar muammosi. Kam chiqindili va chiqindisiz texnologiyalar. Chiqindilardan foydalanishni tubdan yaxshilash masalalari.

Chiqindilarni joylashtirish va ulardan ikkilamchi foydalanishning ekologik asoslari. Chiqindilardan foydalanishning iqtisodiy asoslari.

21-mavzu. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (METH): tushuncha, toifa, mohiyat va vazifalari

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar: tushuncha, toifa va mohiyati. O'zbekistonning qo'riqxonalari va milliy tabiat bog'lari. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning vazifalari, ulardan foydalanish masalalari.

22-mavzu. O'zbekistonning METHlariga tavsif

O'zbekistonning qo'riqxonalari va milliy tabiat bog'lari. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning vazifalari, ular maydonini oshirish masalalari.

23-mavzu. O'zbekistondagi ekologik vaziyat, hududiy farqlari, optimallashtirish masalalari.

Ekologik ekologik vaziyat va uni baholash to'g'risida tushuncha. Ekologik vaziyatlar va ularning geografik joylashuvi. Ekologik vaziyatlarni yumsatish xarakatlari.

24-mavzu. O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash

O'zbekistonda ekologik xavfsizlikka tahdidlar. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash muammolari.

25-mavzu. Ekologik siyosat va barqaror ekologik rivojlanish.

Ekologik siyosat va uning mazmuni. O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosati, barqaror rivojlanish konsepsiyasi va xarakatlar dasturi, uni amalga oshirish bosqichlari. Ekologik ta'lim-barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri sifatida.

26-mavzu. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro hamkorlik.

Xalqaro ekologik hamkorlik tamoyillari. Global ekologik muammolar yechimi bo'yicha strategik yo'nalishlar.

27-mavzu. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga oid amalga oshirilayotgan tadbirlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga oid amalga oshirilayotgan tadbirlar va xalqaro hamkorlikdagi ishtiroki.

28-mavzu. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasida davlat va nodavlat tashkilotlarning o'rni

Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasida davlat va nodavlat tashkilotlarning o'rni va mohiyatni tahlil qilish.

29-mavzu. Ekologik ta'lim-tarbiya muammolar

Ekologik ta'lim-tarbiya va madaniyat tushunchasi, toifa va mohiyatni tahlil qilish.

30-mavzu. Ekologiya va ma'naviyat

Ekologiya va ma'naviyat. Ekologik ahloq. Ekologik manifest (N.F.Reymers bo'yicha).

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish" fanining tadqiqot ob'ekti, predmeti va vazifalarini tahlili.
2. Ekologiyaning rivojlanish bosqichlarining tahlili
3. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga oid konsepsiya va tadqiqotlarning rivojlanish tarixi
4. "Tabiat-jamiyat" tizimining ekologik jihatlarini.
5. Tabiiy resurslar, ularning tasnifi va iqtisodiy baholalash.
6. Biosfera to'g'risidagi ta'limot.
7. Noosfera – biosfera evolyusiyasining yangi bosqichi
8. Ekologik tizim to'g'risida tushuncha.
9. Muhit va unga moslashuv.
10. Ekologik omillar to'g'risida tushuncha.
11. Geoekologik muammolar va ularning yechimi. Global geoekologik muammolar.
12. Hududiy va mahalliy geoekologik muammolar
13. Atmosfera havosini muhofaza qilish.
14. Suv resurslari va ularni muhofaza qilish.
15. Markaziy Osiyoda suv muammolari.
16. Tuproq-yer resurslari va ularni muhofaza qilish.
17. Biologik resurslar va ularni muhofaza qilish.
18. O'rmon resurslar va ularni muhofaza qilish.
19. Mineral resurslar va ulardan foydalanishni optimallashtirish.
20. Chiqindilardan foydalanishni tubdan yaxshilash.
21. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (METH): tushuncha, toifa, mohiyat va vazifalar.
22. O'zbekistonning METHiga tavsif.
23. O'zbekistondagi ekologik vaziyat, uhududiy farqlari, optimallashtirish masalalari.
24. O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash.
25. Ekologik siyosat va barqaror ekologik rivojlanish.
26. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro hamkorlik.
27. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga oid amalga oshirilayotgan tadbirlar.
28. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasida davlat va nodavlat tashkilotlarning o'rnini.
29. Ekologik ta'lim-tarbiya muammolar.
30. Ekologiya va ma'naviyat.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyiha uchun maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib,

hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Koinot, inson va ekologiya.
2. Ekologiya, tabiatni muhofaza qilish va iqtisodiyot.
3. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish: qonun va tamoyillar.
4. "Tabiat - jamiyat" tizimi evolyusiyasi va uning oqibatlari
5. Tabiiy resurslar va ulardan oqilona foydalanish muammolari.
6. Tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlari.
7. Tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishni boshqarish.
8. Biosfera va inson.
9. Ekologik tizimlar va ularning xususiyatlari.
10. Ekologik omillar va muhit.
11. Atmosfera havosining ifloslanishi va uni muhofaza qilish.
12. Suv resurslari, ulardan foydalanish va muhofaza qilish.
13. Tuproq – yer resurslari, foydalanish holati va mahsuldorligini oshirish.
14. O'simlik resurslari va ularni muhofaza qilish.
15. Hayvonot olami va ularni muhofaza qilish.
16. Mineral resurslar va ulardan foydalanishni optimallashtirish.
17. O'zbekistonning muhofaza etiladigan tabiiy hududlari.
18. Urbanizatsiya va atrof muhit muammolari.
19. Ikkilamchi (chiqindi) resurslar muammosi.
20. Qishloq xo'jaligi va atrof muhit muammolari.
21. Transport va atrof muhit muammolari.
22. Sanoat va atrof muhit muammolari.
23. Demografiya va ekologik muammolar.
24. Global ekologik muammolar va ularning yechimi.
25. Global iqlim o'zgarishlari muammolari.
26. Dunyo okeanining ifloslanishi va oqibatlari.
27. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlik.
28. O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosati.
29. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va nutqlarida tabiatdan foydalanish, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish masalalari.
30. Rekreatsiya, turizm va atrof muhit muammolari.
31. Barqaror rivojlanish va atrof muhit.
32. Ekologiya va qonunchilik.
33. O'rta Osiyolik allomalarning ekologik qarashlari.
34. Klassik adabiyot va ekologiya masalalari.
35. Zamonaviy adabiyotda ekologik muammolarning aks etishi.
36. Ekologik inqirozning oldini olish muammolari.
37. Ekologik ta'lim muammolari.

	38. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilishda nodavlat va notijorat tashkilotlarining oʻmi hamda ahamiyati. 39. Ekologik tarbiyada maktabgacha taʼlim muassalarining oʻmi. 40. Ekologik tarbiyada oilaning oʻmi. 41. Ekologik tarbiyada oʻrta maktabning oʻmi. 42. Qurʼoni Karim va Xadisu Shariflarda ekologiya va tabiatdan foydalanish masalalari. 43. Xalq ogʻzaki ijodida ekologiyaga oid masalalarning yoritilishi. 44. Ekologik tarbiyada milliy urf odatlar, anʼana va udumlarning ahamiyati. 45. Ekologiya va maʼnaviyat: oʻzaro uygʻunlik va aloqadorlik. 46. Oʻzbekistonning turli mintaqalari (masalan, Fargʻona vodiysi, Quyi Amudaryo va h.k.)dagi ekologik muammolar.
3.	V. Taʼlim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni oʻzlashtirish natijasida talaba: - tabiatni muhofaza qilish, atrof muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslar va boshqa tushunchalar mazmun-mohiyatini aniqlay olishni, tabiat va jamiyatning turli davrlarda oʻzaro taʼsirining oqibatlariga baho berishni, atrof muhitni ifloslovchi manbalarni aniqlay olishni, geografik qonuniyatlarni insonning tabiatga taʼsiri natijasida buzilishini aniqlay olishni, tabiiy resurslardan foydalanish jarayonida atrof muhit oʻzgarishining asosiy yoʻnalishlarini baholashni, tabiatni muhofaza qilishning nazariy va metodologik asoslari shakllari haqida <i>tasavvurga ega boʻlishi (bilim)</i>; - Talaba tabiiy resurslarni baholashi va ularni muhofaza qilishning asosiy usullari va ularni tahlil qilish, xulosalar chiqarish, ekologik siyosat va ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishni, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi halqaro hamkorliklarni tahlil qilish va prognoz qilishni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi (koʻnikma)</i>; - Talaba tabiiy resurslarning turlarini hamda ularning tarkibiy qismlarini inson taʼsiri toʻgʻrisida, atmosferani muhofaza qilish toʻgʻrisida, suv resurslarini muhofaza qilish toʻgʻrisida, tuproq-yer resurslarini muhofaza qilish toʻgʻrisida, biologik resurslarni muhofaza qilish toʻgʻrisida <i>koʻnikmalariga ega boʻlishi kerak. (malaka)</i>.
4.	VI. Taʼlim texnologiyalari va metodlari: • maʼruza; • keys-stadi; • individual loyihalar; • taqdimotlar qilish; • guruhlarda ishlash; • jamoa boʻlib ishlash va himoya qilish;

• “BBB”, “Taroz”, “SWOT-tahlil”, “Sinkveyn”, “FSMU”, o'yin, musobaqa, aylanma trenirovka, takroriy mashq, o'zgaruvchan mashq, qat'iy tartiblashgan mashqlar.	VII. Kreditlarni olish uchun talabalar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettirish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oralik nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirishi zarur.
VIII. Asosiy adabiyotlar: 1. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. T.: O'zbekiston, 1998. 2. Abirqulov Q.N., Xojimatov A.N. Atrof-muhitni muhofaza qilish. T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2004. 3. Rafiqov A.A., Abirqulov Q.N., Xojimatov A.N. Ekologiya. T.: “O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi”, 2004. 4. Tursunov X. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. O'zbekiston, T. 1997. 5. Tursunov X.T., Rahimova T.U. Ekologiya. Olmapress. T. 2006. 6. Xojimatov A.N., Alimkulov N.R., Xolmurodov Sh.A., Djurayev M.E. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. T.: Innovatsion rivojlanish nashriyoti-Matbaa uyi., 2020. 228 b. 7. Xojimatov A.N. Tabiatdan foydalanishning geografik asoslari. T.: 2022. 156-b.	IX. Qo'shimcha adabiyotlar: 1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. –T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b. 2. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b. 3. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev. –T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b. 4. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.-Toshkent, 2021. –458 b. 5. Rafiqov A.A. Geoekologik muammolar. -T.: O'qituvchi. 1997. 6. Rafiqov A., Xojimatov., Alimkulov A., Xolmurodov Sh., Geoekologiya asoslari.T., TDPU., 2015.

	7. Zokirov Sh.S. Antropogen va amaliy landshaftshunoslik T.: Universitet. 1998. 8. Бекназов Р.У., Новиков Ю.П. Охрана природы. Т.: Ухитувчи. 1996. 9. Xojimatov A.N. Ekologik monitoring. T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jang'armasi. 2004. X. Axborot manbalari 1. www.pedagog.uz 2. www.edu.uz 3. www.ziyounet.uz 4. www.cspi.uz 5. www.lib.cspi.uz 6. www.geografiya.uz 7. www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
7.	Chirehiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil "29" <i>avgust</i> dagi qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari: Tursunov X.T. – CHDPU "Geografiya" kafedrasi dotsenti, g.f.n.
9.	Taqrizchilar: Abduhazarov O'Q.– O'zbekiston Milliy universiteti "Tabiiy geografiya" kafedrasi dotsenti, g.f.n. Xojimatov A.N.– TDPU "Geografiya va uni o'qitish" kafedrasi professori, g.f.n.